

Hurriyatdan nechun foydalanamiz!

(boshi o'tkan nomerda)

O'tgan maqolamda ushlagan mavzuimdan chetga chiqub, asli maqsadimni keyingi no'merga qoldirg'on edim. Endi, asli maqsadimga ko'chub, "Hurriyatdan nechuk foydalanamiz?" degan savolimni yo'llarin ko'rsatib o'taman...

55 yillardan beri, zolim hukumat taxt idorasinda ezilub vujudlari zaharlang'on, vijdonlari azoblang'on, fikrlari to'ngg'on, haq so'zni so'zlavdin tillari to'xtag'on, haqiqatni yozuvdin qalamlari titrag'on mazlum "Turkiston" musulmonlarining ham boshqalar ila huquqda teng bo'lub, hurriyatdan foydalanmaklari ayni zamonda birinchi maqsad, birinchi matlab!...

Hurriyatdan foydalanmak uchun avval hammani birdan hurriyat ruhi ila sug'orilub, hurriyatni nima ekanin tamomila bilishlari kerak. Hozir bizda ba'zi shahar ham aksar qishloqlar bordirki, alarda yashovchi bechoralarni "Hurriyat" degan so'z ehtimol, quloqlarig'a ham eshitilmagaydir. Demak, alarni holig'a diqqat etmak lozim. Qichqurub yurushlarimiz, hurriyat ila bir birimizni yuzkiradan tabrik etishlarimiz bular bir xiyoling'a bular bir sholiqing'a!...

Emdi hayollarni, emdi bu kunlarni emdi bu hurriyat deb foydasiz qichqirishlarni vaqti o'tdi, zamoni o'tdi, keldi ish vaqti, keldi ish zamoni...

Hurriyatni qo'ldin bermas uchun, hurriyatdan foydalanmak uchun biz umum Turkistonning ulamosini, ziyolisini, boyini, faqirini, mirzosini, ishchisini bir fikrg'a bir maslakka yig'ayluk. Bularg'a siyosiy tarbiya ila hurriyat ruhan tarataylik. Hozirda aksariyat tarafidan qabul etilub o'rtag'a otilg'on "Idorai jumhuriya" degan idoraning usuli ila siyosiy maslakin, anglamog'on qora xalqlarimizg'a anglatayluk!.. Bu fikrni taratuv uchun, hozirdan boshlab, turkistonning har bir qorong'u qishloqlarig'a ma'lumotli deleg'atlarni yuborub, jamiyatlar yasab, shu haqda "leksiya"lar so'ylatayluk: hozirgi ahvol ila xalqni tanishdirub, masalani alarg'a tushundirayluk. Ma'lum bizda aksariyat qoralardan iborat. Bunday narsalardan tabiiy alar mutlaqo xabarsiz demak, shu qoralarimiz hozirgi ahvolni yaxshi tushunib. Bizga fikran ishtirok etushmasalar 100 dan 10 kishi bo'lg'on biz nima ish ishlay olamiz? Eshita hurriyatdan foydalanub bir maqsadga yetushmak uchun mutlaq hammani fikrda, dilda, maslakda, tovushda bir bo'luri kerak birisi bir fikr bayon etsa, ikkinchi anga qarshi tovush bersa, uchinchisi maslakdan adashmasa bunda foydalanmak va kuzatgon maqsadiga yetushmak mumkin bo'lmasdan balki ish teskariga ketub, juda zarar bo'lub chiqadir. Eshita hozirgi ahvolni juddiy e'tiborg'a olub, kuchimizni ko'paydurmoq fikrimizni bir qilmoq uchun hammani barobar "hurriyat" ila tanishdurub bir fikrda tovushga molik bo'lurg'a hozirlanayluk. YA'ni maqsadimizga xizmat etadurg'on kishilarni birlashdirayluk: ko'payturayluk!.

Man yuqorida "fikir bir bo'lmasa, hurriyatdin foydalanmak o'rniga balki zarar bo'ladur" degan mazmunda bir jumla qo'lladum. Ehtimol ba'zingiz! "bu nima degan so'z? bu so'z durust emas." deb menim fikrimg'a qarshi e'tiroz ham aytursiz! Siz manim shu mazmunda so'zlag'on fikrimni yaxshi anglamoqchi bo'lsangiz, bundan o'n ikki yil avvalgi tarixga ko'chingiz! "YAponiya" savashindan keyin bir qism "hurriyat" qahramonlarining harakatlari va ko'p bergan qurbonlari soyasinda bir nav' "hurriyat" ikkinchi Nikolay tarafidan berilub, idoralarning ham zulmlari bir nav' yumshatilgon edi. Xalq ham bir oz ozodliqg'a chiqg'on edi. Keyin ul hurriyat

alomatlari tamoman qo‘porilub, berilgan huquqlar hammasi yanadan nimaga istibdod romkasig‘a solindi? Nimaga yana ham barobar zulm istibdod ostig‘a olindi?

Nimaga G‘.Dumag‘a isminda ochilg‘on, xalq manfaatini kuzatadurgan muhtaram bir binoda eski zolim ministrilar hukm surib keldi? Mana e‘tirozchilar! Siz munga diqqat etingiz! Ma‘lum ul vaqtda hurriyat hurriyat ruhi ila sug‘orilub hurriyatni nima ekanligini bilgan kishi, nima degani yo‘q edi? U vaqtda ham soldatlar, hamma ofitserlar, hamma to‘ralar hurriyatga qarshi edi, eski hukumat tarafinda edi. Oh! Hurriyat talab etuvchilar esa faqat ishchi sinflarg‘ina edi. Alarni ham fikri yuz turli edi. U vaqtda millat hokimi millat mahkumiga nisbatan bir necha martabalar qutli edi. Shuning uchun ul berilg‘on hurriyat, ul berilg‘on huquqlar hammasini xoinonalik ila yanadin oling‘on edi. Demak, hurriyatni qo‘lda saqlab andin foydalanmak uchun kuch ko‘p bo‘lishi, fikrning ham bir bo‘luvi lozim ekani endi shoyad anglashilg‘ondir. Hozirgi oling‘on hurriyatda quvvat aytub bitirmaslik darajada juda ko‘p. Ammo fikr bir tekis hammaga taralub bitmagon. Shu hol e‘tiborg‘a olinsa, biz turkistonlilar ham boshqa musulmon qardoshlarimizga kerak risolalar kerak deleg‘atlar vositasi ila haqiqat holini asli ila bildururg‘a alarni ham onglilarimiz ila bir fikrda bo‘lishlarig‘a harakatlanayluk. Yo‘q esa, yo‘q narsalar ila boshimizni og‘ritub umrimizni o‘tkazmak ajabo!

Hurriyatdan nechuk foydalanamiz?

Bitdi.

Mirmuhsin Shermuhammedov.

“Najot” gazetasi. - 1917. – 3 iyun. № 18, 1-2 betlar.

(O.Z.)